

## O'RTA TIBBIY TA'LIMDA INNOVASION O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING TURLARI VA NAZARIY ASOSLARI

*DJumabayev Ergash Ataxanovich*

*Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat*

*salomatligi texnikumi o'quv-tarbiyaviy*

*ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*

*Axmedova Durdona Davronbek qizi*

*Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*Jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o'rta tibbiy ta'limda innovasion o'qitish texnologiyalari, ta'lim innovatsiyalari, ularning mohiyati, turlari, nazariy asoslari, ta'lim jarayonini shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish, pedagogik texnologiyalar hamda innovasion yondashuvlarni o'quv jarayoniga tadbiiq etish ta'lim-tarbiya sohasida yuqori darajalarga erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, innovatsiya, innovasion ta'lim, emperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, inklyuziv

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan juda katta e'tibor olinayotgan sohalardan biri o'rta tibbiy ta'lim sohasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2023-yil yakunida 2024-yil Yoshlar va biznesni qo'lab-quvvatlash yili deb nomladilar. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlar va ularga tibbiy ta'lim berish sohasiga berilayotgan juda katta e'tibor bu bugungi kundagi yosh avlodning kelajagi uchun qayg'urushdir.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rta tibbiy ta'lim jarayonida innovasion o'qitish texnologiyalari, ularning mohiyati, turlari va nazariy asoslari, o'qitish jarayoniga innovasion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda yondashuvlarning mohiyati va ahamiyati shuningdek, o'qitish jarayonini tashkil etishda ijodiy yondashuvlar va shakllantirishning bosqichlarini roli mazmun - mohiyati ko'rsatilib berilgan.

O'rta tibbiy ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, innovatsiyalarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, o'rta tibbiy ta'lim tizimida pedagogik texnologiya keng qo'llaniladi.

O'rta tibbiy xodimlar tayyorlashda innovasion texnologiyalardan foydalanib takomillashtirishda pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish ta'limning mazmun va mohiyatini takomillashtirishga olib keladi. An'anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalari muhitidagi pedagogik ta'limlarning asosiy ko'rsatkichlarini taqqoslash axborotlashtirilgan pedagogik ta'limning istiqbolli ekanligini yaqqol

namoyon qildi. Buni quyidagi fikrlar asosida ham tasdiqlash mumkin. An'anaviy didaktika o'z oldiga shaxsni aqliy rivojlantirish, uning o'quv faoliyatida bilimni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarini egallash jarayonini optimallashtirishga qaratilgan innovatsion usullarni yaratishga qaratilgan o'qitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi

“Texnologiya” atamasi yunoncha so'z bo'lib, mahorat, san'at ma'nolarini anglatadi. Bu atama dastlab, ishlab chiqarish sohasida va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda 1870 yillarda qo'llanila boshlagan bo'lib, unga materiallarga ishlov berish, ularning tarkibi, xususiyatlarini, ko'rinishini, tayyorlanishini, qo'llanish sohasini o'zgartirish yo'llari hakidagi fan sifatida qaralgan.

Pedagog xodim ishidagi muvoffaqiyatning siri nafaqat u qo'llayotgan o'qitish texnologiyalarida, balki pedagog-tarbiyachi sifatidagi mahoratida, o'quvchi qalbiga yo'l topa olishida namoyon bo'ladi. Har bir pedagog qanday texnologiyani qo'llamasin, uning o'quvchiga muomalasi muhim ahamiyatga ega. Chunki, har qanday texnologiya jonli, hissiyotlarga boy insoniy munosabatlar, pedagogik muamola va mahoratning o'rnini bosa olmaydi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar deyarli har-xil yakuniy erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, barcha ta'lim muassasalariga yagona ta'lim standart talabiga javob beradigan o'rta tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz O'zbekistonlik pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir.

“Texnologiya”ning fan sifatida vujudga kelishiga - XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari va texnologiyalarini ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi sabab bo'ldi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, “Texnologiya” fani ham qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Ushbu davrda, bu hunarmandning buyumlarni tayyorlash san'atiga, ustози rahbarligi ostida o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatgan. Lug'aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi.

Innovasiya - bu muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Innovasiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

- 1) Innovasiya - texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;
- 2) Ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilmoqda.

Innovasion o'qitish - bu ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan

o'qitishdan iborat. Innovasion o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovasion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovasiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovasiyalari - bu ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir. Ta'lim innovasiyalari "innovasion ta'lim" deb ham nomlanadi.

Hozirda pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari emperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, additiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardir. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Emperik - sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv - atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik - yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirish, xizmat qiluvchi, o'quv-izlanish ta'lim metodi bo'lib, optimallashtirish tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ - tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion - axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur tizimini shakllantiradi.

Integrativ - axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

Adaptiv - axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv - o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Har bir mavzuni bayon etishda dars jarayonida innovasion o'qitish texnologiyalarini tadbiq etish, shuningdek innovasion tibbiy ta'lim texnologiyasining mohiyati, turlari va nazariy asoslariga e'tibor qaratilishi lozim.

Innovasiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. O'rta tibbiy ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovasiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Bu jarayondan innovasion yondashuvlarni o'quv jarayoniga tadbiq etish ta'lim-tarbiya sohasida yuqori darajalarga erishishda asosiy omil bo'lib hizmat qiladi.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 28 yanvar 2022 yil. PF-60 son
2. O‘zbekiston Prezidentining 2017 yil 18 maydagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘yicha Respublika komissiyasini tuzish to‘g‘risida»gi 4941-sonli Farmoyishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3504-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4310 sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori
7. Zunnunov A., Xayrullaev M. Pedagogika tarixi.- T.: Sharq, 2000. - 240 b.
8. Ishmuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari (2 kitob).—T.: TDPU, 2009. - 108 b.